

Xorazm Qipchoq Shevalarining O'zbek Shevalari Tadqiqidagi O'rni

Alimova Shahnoza Maqsudovna¹

Annotatsiya: Ma'lumki, shevalarni o'rganish, unda mavjud so'z boyligini saqlab qolish har bir tilda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Xorazm qipchoq shevalarining o'zbek shevalarini tadqiq qilishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek shevalari, Xorazm qipchoq shevalari, dialekt, lahja, qipchoq guruhi, shevalar tasnifi.

Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlari, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohalarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangromoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabr kuni "Davlat tili haqida"gi qonunning 30 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"gi qarorida o'tgan yillar davomida ona tilimiz mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'lgani qayd etiladi. Bundan tashqari, 80 ming so'zni o'z ichiga olgan 5 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning nashr etilishi, 100 tomlik o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining nashriga kirishilgani, respublikadagi gazeta va jurnallarning soni 2 mingdan oshgani va niroyat O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgani, xususan, so'nggi yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilgani ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo'llanish doirasini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni yangi pog'onaga ko'tardi.² Bu masalada J.Eltazarovning quyidagi so'zlar muhim ahamiyatga ega: "Millat sifatida uyushmaganimizning asosiy sabablaridan biri ham so'zlarimizning umumiyligini aylanmaganidadir. Shevalarni mensimaslik, adabiy tilning bebaho boyish xazinasini tan olmaslik fenomeni asosida ham ana shu hol yotibdi. Ziyolilarimiz va farzandlarimiz chet tillarga chechan, xorijiy so'zlarning asliniyam biladi, ammo ona tilining jozibasini, uning tirikligini ta'minlab turgan xalqona so'zlarni bilmaydi. O'zbek xalq shevalarida ruh bor, hayot nafasi ufurib turadi, u milliy tilimizning jonli shakli, axir! Keyingi paytda o'zbek shevalarini o'rganish va uning boyliklarini to'plash va nashr qilish borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biz o'zbek tilshunoslari va o'zbek intelligensiyasi zamonaviy tushunchalarni ifodalash uchun shevalarning boyligini adabiy tilga transformatsiya qilishni uddasidan chiqmadik. Xullas, til siyosati va til o'qitish borasidagi keyingi 30 yillik tajribalarimiz, xato va kamchiliklarimizdan xulosa chiqarib, o'zbek tilini jamiyatimiz hayotida ustuvor qilish va uni ilmiy texnologiyalar tiliga aylantirish uchun qo'limizdan kelgan barcha ishlarni amalga oshirishimiz lozim."³

Darhaqiqat, shevalarni o'rganish, unda mavjud so'z boyligimizni saqlab qolish hamda tadqiq qilish lozim. Shu maqsad yo'lida Xorazm qipchoq shevalarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqini olib bordik.

Ma'lumki, ko'pgina o'zbek shevalari mukammal o'rganilgan. Biroq ayrim dialektlar haqida bunday fikrni aytma olmaymiz, shu jumladan, XQSH⁴ ham o'zining barcha aspektlari bo'yicha to'liq tadqiq

¹ Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD

² Элтазаров Ж. Она тилимизнинг жозибаси шеваларда. – Самарканд, 2020.

<https://www.facebook.com/2127795750570043/posts/3693749297308006/>

³ Ko'rsatilgan manba.

⁴ XQSH – Xorazm qipchoq shevalari



qilingan emas. Garchi Xorazm shevalarining o‘g‘uz lahjasi bo‘yicha ancha salmoqli ishlar yaratilgan bo‘lsa ham, qipchoq shevalari tadqiqi haqida bunday deya olmaymiz.

X.Doniyorov o‘zbek tilining qipchoq dialektini tasnif qilar ekan, umuman, qipchoq tillari haqida, ularning tiplari va xususiyatlari masalasida N.A.Baskakov, F.Abdullayev, V.V.Reshetov qarashlariga suyanadi va qipchoq shevalarini umumiyligi beshta guruhgaga ajratadi. Xorazm qipchoq shevalarini Shimoliy Xorazm guruhi (shimoliy Xorazm qipchoq dialekti) deb nomlaydi⁵. Bu guruh qipchoq shevalari E.D.Polivanov, F.Abdullayev, A.Ishayev va Y.Ibragimovlar tomonidan o‘rganilganini aytadi va bu guruh tarkibiga Qoraqalpog‘istonidagi qipchoq shevalarini ham qo‘sish lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu guruh qipchoq shevalarida o‘g‘uz elementlarining ko‘plab uchrashi bilan boshqa qipchoq shevalaridan farqlanadi⁶.

Til xususiyatlari ko‘ra o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga mansub kishilar, asosan, Xorazm viloyatining Gurlan, Yangibozor, shuningdek, Shovot va Bog‘ot tumanlarining ayrim qishloqlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Beruniy, Amudaryo, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot va qisman Shumanay tumani, Nukus tumanining Nazarxon qishloqlarida yashaydilar. Mazkur shevalar ayrim lingvistik belgilariga ko‘ra bir-biridan ma’lum darajada farqlanadi. Shu sababli tadqiqotchilar ularni Beruniy-Mang‘it, Xo‘jayli-Qipchoq va Qo‘ng‘irot shevalari deb tasnif qiladilar. Ushbu tasnifda Xorazm viloyati hududida joylashgan Gurlan-Yangibozor shevalari, shuningdek, boshqa tumanlardagi sheva vakillari e’tibordan chetda qolgan. A.Ishayev bu shevalarning to‘liq tasnifini boshqa bir ishimizda mufassal yoritamiz⁷, deb qayd qilgan bo‘lsa ham, negadir keyinchalik olimning bu masalaga bag‘ishlangan tadqiqotini uchratmadik.

Bizning tadqiqotimiz ham Xorazm viloyatidagi qipchoq shevalariga oid har qanday masalaning yechimi, deya olmasak ham, XQSHning umumiyligi leksik-grammatik xususiyatlari haqida bir qadar keng tasavvur bera olishiga umid qilamiz.

Xorazm viloyatining shimoliy tumanlari, asosan, Gurlan (Saxtiyon, Chinobod, Eshimjiron, Do‘simbiy, Olg‘a, Namuna, Guliston, Vazir, Navoiy qishloqlari), Yangibozor (Bo‘zqal‘a, Uyg‘ur, Qalandardo‘rman, Oyoqdo‘rman, Boshqirshix, Shirinvo‘ng‘irot, Cho‘bolonchi, Bog‘olon qishloqlari) tumanlarida genetik jihatdan qipchoq guruhiga aloqador bo‘lgan o‘zbeklar yashaydilar, xuddi shu o‘zbeklar Janubiy Xorazmdagi barcha tumanlarning 20 % dan 40 % gacha aholisini tashkil qiladilar. Ayniqsa, Bog‘ot (Qipchoq, Qulonqorabog‘ qishloqlari), Shovot (Bo‘yrachi, Ijtimoiyat, Xitoy qishloqlari), Qo‘siko‘pir (Qatag‘on qishlog‘i) va Urganch (Yuqorido‘rman, G‘alaba qishloqlari) tumanlari aholisining ko‘pchiligi genetik jihatdan qipchoq guruhiga aloqadordir. Biz shartli ravishda qipchoqlar deb atagan bu o‘zbeklar turli siyosiy va iqtisodiy sabablar bilan so‘nggi 350-400 yil ichida Orol dengizi bo‘ylaridan Xorazmning janubiga ko‘chgandirlar. Bundan tashqari, qipchoqlar Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘iga joylashgan To‘rtko‘l va Beruniy tumanlari aholisining 60-70 % ni tashkil qiladilar⁸.

Juda qadimiy turkiy qabilalardan biri bo‘lgan qipchoqlar Xitoy yodnomalarida *kyushe*, *kucha*, *kincha*, *habisa*; arab, fors manbalarida *qimaq*, *qipchoq*, Vizantiya xronikalarida *kuman*, rus yodnomalarida *polovets* deb yuritilgan⁹.

Keyingi yillarda ona tilimiz har tomonlama ravnaq topib, huquqiy maqomi mustahkamlanishi bilan birgalikda qo‘llanish doirasi kengayib bormoqda. Istiqlol yillarda milliy o‘zlikni anglashda, ajoddolarimizdan bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarni tadqiq etishda, bugungi kunda jahon iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy yutuqlari bilan tanishishda ona tilimiz ko‘prik vazifasini o‘tashi bilan birgalikda jamiyat tafakkuri shakllanishiga ham o‘z hissasini qo‘shtemoqda. Shu bilan birga, adabiy tilimizning bir bo‘lagi hisoblangan o‘zbek dialektlari bo‘yicha bugungi kunda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish, turkiy tillar ichida eng boy, rang-barang lajhajalarga ega bo‘lgan o‘zbek

⁵ Дониёров Х. Қипчоқ диалектининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – Б.12.

⁶ Ko‘rsatilgan manba.

⁷ Ишаев А. Қоракалпогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент, 1977. – Б.5.

⁸ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. I том. – Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1961. – Б.241.

⁹ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 93.



shevashunosligi bo‘yicha ilmiy ekspeditsiya va izlanishlarni uzviy amalga oshirish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil qilinganligi ayni muddao bo‘ldi. Aytish kerakki, sheva va lahjalarning ko‘plab lisoniy birliklarida tilimizning qadimiylari va ko‘hna xususiyatlari hamon saqlanib kelmoqda. Ularda xalqimiz tarixi, etnografiyasi, madaniyatini va ma’naviyatining ko‘plab qirralarini o‘zida yorqin ifoda qilgan noyob dalillar bor. Xorazm qipchoq shevalarini hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan qiyoslab o‘rganish birgina shevashunoslik uchun emas, balki bir qator turkiy tillar dialektologiyasi uchun ham ilmiy qimmatga ega. Ana shunday bebaaho boyligimizni o‘z vaqtida to‘plab qolish, ularni ilmiy-amaliy tahlil qilish hamda bugungi mustaqillik davri madaniyatiga xizmat qildirish ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. I том. – Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1961. – Б.241.
2. Дониёров X. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 93.
3. Дониёров X. Қипчоқ диалектининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – Б.12.
4. Ишаев А. Қорақалпогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент, 1977. – Б.5.
5. Элтазаров Ж. Она тилимизнинг жозибаси шеваларда. – Самарқанд, 2020.
<https://www.facebook.com/2127795750570043/posts/3693749297308006/>

